

**O'XSHASH QALAMDA TURFA TAQDIR HAR KIM OTA BO'LISHI
MUMKIN, LEKIN FAQAT O'ZIGA XOS OTA BO'LADI
(DEMOKRIT)**

Abduzoirova Nasiba Farmon qizi
TDPU 2-bosqich talabasi

Mahbuba O'razbayeva
Ilmiy rahbar, TDPU dotsent v.b., f.f.f.d., PhD

Annontatsiya:

Mazkur maqolada iste'dodli yozuvchilar Hakim Nazirning Ota''hikoyasi hamda Xoliyor Safarovning ''Ota''hikoyalari tahlilga tortishga barobarida ikki asarning mushtarak va farqli jihatlari aniqlandi.

Kalit so`zlar: Ota, obraz, badiiyat, qahramon, xarakter, detallar zanjiri, ijtimoiy-hayotiy masalalar.

Annotation:

In this article, the common and different aspects of the two works have been identified by analyzing the "Father" stories of talented writers Hakim Nazir and the "Father" stories of Kholiyor Safarov.

Key words: Father, Image, art, Hero, character, chain of details, socio-life.

O'zbek adabiyoti paydo bo'lgandan to bugunga qadar minglab qalam ustalari va ularning durdona asarlarini dunyoga keltirdi. Xoh tarixiy, xoh zamonaviy adabiyotga to'xtalmang, o'zining purmazmunligi, teranligi bilan kishini lol qoldiruvchi asarlar talaygina. Daryo jilg'alardan boshlanadi deganlaridek, milliy adabiyotimizga ''Qishloqdagi Jiyanlarim'' to'plami orqali ilk qadamlarini qo'ygan qalamkash Hakim Nazir ham o'z ijodini she'r va kichik nasriy asarlar yozishdan boshlagan. Uning yozuvchilik faoliyatida Oybek, Abdulla Qahhor kabi adabiyotimiz darg'alarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Uni ''Lochin Qanotlari'' nomli ikkinchi jahon urishi voqealarini aks ettirgan romani hamda ''Ko'kterk shabadasi''



“Kenjatoy” qissalari keng jamoatchilikka tanitdi. Hozirda biz soʻz yuritmoqchi boʻlgan asar ushbu adibning “Ota” hikoyasidir. Ushbu asar ijtimoiy-hayotiy voqealar asosiga qurilgan. Asar sarlavhasini mazmunni ochuvchi kalit desak mubolagʻa boʻlmaydi. Hikoya shifoxonadagi bemor ota tasviri bilan muqaddimalangan boʻlsa, oʻznavbatida shifoxona detali va Kabir ota obrazi asar tugunini ham boshlab bergan. Yetim oʻgʻil, yetim qiz va umri davomida ichkilikboz erining tayziqlariga miq etmay sabr qilgan ona - ushbu uch obraz asar kompazitsiyasini tashkil etgan. Hakim Nazir yuzaki bayonchilikdan qochib qahramonlar dialoglari orqali tugun va voqealar rivojiga kirib borgan. Shu tasvir va ikki obraz orqali tugun sababi oydinlashtirilgan. Asar boshida tilga olingan ichkilikboz er qingʻir ishlari tufayli qamaldi. Xuddi shu holat oila va ota oʻrtasida konfliktni shakllantirgan. Mavluda xola endi ikki bola bilan yolgʻiz qoladi. Ijodkor tomonidan asar syujeti yangi qahramon Kabir ota obrazi bilan boyitiladi.

Ikki yetimning boshini silagan va bu oilaning bor tashvishini oʻz boʻyniga olgan tanti ota obrazi ichkilikboz otaning mutlaqo teskarisi. Ota ikki bolani oʻz farzandidek katta qiladi ularning chin inson boʻlishlari uchun qoʻlidan kelgan barcha ishni qiladi. Farzandlar ham otaning umidlarini oqlab, bekamu-koʻst kamol topayotgan edi.

Kabir otaning oʻgʻli Zarifjon universitetni muvaffaqiyatli bitirgach ilmiy ishga mukkasidan ketadi. “Insonlik qonunlari” mavzusida dissertatsiya yoqlab kandidat boʻladi. Ota bulardan xursand, oʻgʻil tarbiyasi uchun sarflangan mehnat behuda ketmaganidan shukur qiladi. Adib tugundan yechim sari borar ekan, qahramonlar dialogi orqali voqealarni oʻquvchi nazdida yanada ayon qiladi.

Nematjon oddiy ikkinchi darajali qahramon, shifoxonadagi Kabir otaning palatadigi sherigi. Lekin u oʻzgalar hayotiga befarq emas. Neʼmatjon asardagi qahramonlar hayotida bir oʻtkinchi inson boʻlsa ham negadir ular uchun qaygʻuradi. Kabir ota doim tushida alahlab “Zarifjon” isminini takrorlashi uni qiziqtiradi, oʻzining uch oydan beri zotiljam boʻlib yotganiga qaramay nimadir qilib bu cholning mushkulini oson qilishni istaydi.

Zarifjon tamomila insoniylikdan mosuvo obraz. Ota toʻshakda farzandni bir koʻrishga zor. Vaholanki, “Insonlik qonunlari” mavzusida dissertatsiya yoqlagan oʻgʻilning bir kelib hol soʻrashga vaqti yoʻq. Onasining “otangning dardi bu gal boʻlakcha, xabar ol”- degan davatlariga “ee vahima qilmang, otam uncha muncha



dardni ko`rdim demay yengib kelganlar, bu gal ham yengib yuboradilar”-deb yuzakigina javob beradi.

Asardagi bu lavhani o`qib Zarifjondan qanchalik hafsalangiz pir bo`lsa, Kabir ota endi odam tanimas, ko`z ochishga majolsiz, faqat bir nimalar deb pichirlar edi. Yaqindan quloq solgan kishi uning “Zarifjon” deb takrorlayotganini payqardi. Nematjon uning qulog`iga “Otajon o`g`lingiz kelyapti” deganda Kabir otaning ko`zi yarq etib ochilib ketadi. Shu ko`z ochiqlicha jon beradi. Adib tomonidan chizilgan ushbu holat portreti orqali yuragingiz junbushga keladi.

Hakim Nazir yaratgan otaning yashashdagi ilinji ham shu farzand o`lgandagi ilinji ham shu farzand edi. Garchi u o`z bolasi bo`lmasa ham. Chunki u yaratgan ota qalban, ruhan ota edida. Shu o`g`ilni yuragining bir parchasi deb bilardi.

Adib kulminatsiyadan o`tib yechim tomon borar ekan, qahramonlar dialogiga murojaat qiladi. "Dafn marosimidan so`ng Kabir otaning qadr don do'stlari uning uyiga borishayotgan edi ularning yonidan yapyangi "jiguli"da qora ko'zaynakli basavlat yigit o'tdi tez o'tgan bo'lsa ham uni qariyalardan biri tanidi.

“ - Ana ustaning o'g'li keldi

- Darvoqe, Roziqboy ustani shu ado qildi. Gap borku: “yetim qo'zi asrasang og'zi burning moy bo'lar yetim bola asrasang og'zi burning qon bo'lar”.

- Tavba deng ,mulla Shodi - mundoq orqa o'ngingizga qarab gapiring. O'g'lim Yolqinni bilasizku, uni yetimxonadan tilab olib boqqanman. Mana xudoga shukur izimni bosdi. Mana ikki bolalik bo'ldi hali ham izmimdan chiqmaydi.

- Siqilmang, Roziqboy do'stinga kuyganimdan gapiramanda bu o'g'il olimlikni yoqlagani bilan insonlikni yoqlamabdi.”

Birgina shu so'z, birgina jumla "olimlikni yoqlagani bilan insonlikni yoqlamabdi" asarning butun mazmunini ochib bergan. Ijodkor mahorati shunda ko'rinadiki, shu mo'jaz dialog ichiga o'zbek xalqiga xos tantiliklik, bag'rikenglik xislatlarini ochib beruvchi jumalarni ham qamagan. Roziqboy ota, Kabir ota singari yetimlar boshini silagan otalar bizning xalqimiz orasida minglabdir. Bunday bag'rikenglik, insoniylik o'zbek xalqining milliy kaloriti desak also mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchining o'ziga xosligi shundaki, asarlarida yechim va xulosani ko'proq kitobxonning o'ziga qoldiradi.

Bir o'quvchi yoki ixlosmand sifatida Zarifjon singari vijdonini zangbosgan kimsalar nonko'rlikidan nafratlansak, Kabir ota, Roziqboy ota kabi yetim boshini



silab, halol luqma bilan farzandlarini voyaga yetkazgan, ilmlil qilgan insonlar bilan faxrlanamiz.

Dono xalqimizda “ besh qo'l barobar emas” degan naql bor. Bu bejiz emas. Ikkala adib yaratgan ota ham oddiy xalq vakili, ikkala ota ham farzandlari ma'daniyatli odam bo'lishini xohlaydi. Hakim Nazir yaratgan obrazdan farqli o'laroq X.Safarov yaratgan ota o'z farzandining, o'z jigarining baxti-kamoli uchun qayg'uradi. Lekin ikkala ota ham farzandining yo'liga termulib olamdan o'tadi.

Kabir ota singari bu otaning ham o'g'li fan kandidati, ikkala qahramon ham ma'daniyatli, zamonaviy kishilar kabi shaharda hayot kechirishadi. Lekin X.Safarov yaratgan ota obrazi farzandlarining ham otasi, ham onasi edi. Ikkala asar ham ijtimoiy-hayotiy voqealar asosiga qurilgan

X.Safarov yaratgan farzand obrazi Zarifjon kabi emas. U otasini chin dildan yaxshi ko'radi. Faqat u birozgina band. Hayot tashvishlari, ish, turmush tashvishlari uni o'z holiga qo'ymaydi. Vaqt topib ona qishlog'iga borishga, otasi bilan dildan suhbat qurishga oshiqadi.

X.Safarov yaratgan otaning ikki o'g'li ham iymonli, halol yigitlar. Kabir otadan farqli o'laroq bu ota doim e'zozda va yaqin insonlarining qadrlashlari bilan yashagan. Ikkala otani ham o'g'illarining yiroqdaligi va uning sog'inchi azoblagan.

Hakim Nazir xulosani kitobxonning o'ziga qo'yib bergan. X.Safarov esa hikoyaga kenja o'g'il tilidan xotima va xulosa yasagan.

Ikkala ota ham olamdan o'tadi. Lekin Zarifjon singari bu o'g'il janozaga zo'rg'a yetib kelgani yo'q u otasini yaxshi ko'radi.

Qizig'i shundaki, farzandlar turlicha lekin otalar bir xil. O'g'li yo'qolganda sog'inchdan ko'zi ko'r bo'lgan Yaqub alayhissalom ham ota, Kuntug'mish safarga yo'l olganda o'g'lining dardida podshohlikdan voz kechib, umrini toat ibodatga bag'ishlagan Qoraxon ham ota, o'g'liga o'q uzib” xayriyat tegmadi”- degan Ikromjon ham bir ota. Shunday ekan oradan qancha davr, qancha zamon o'tsa ham otaga beriladigan ta'riflar va sifatlar o'zgarmaydi.

Hakim Nazir va Xoliyor Safarov yaratgan qahramonlar ham shular qatorida turuvchi bir ota. Otalik zamon tanlamaydi, otalik millat, elat tanlamaydi. Eng muhimi, hech bir ota farzand tanlamaydi. Bolasi dunyodagi eng yomon inson bo'lsa ham u o'z farzandini yaxshi ko'radi, chunki u otada Yaxshiki tangrim hayotimizdagi mo'jizalarni - otalarimizni yaratdi, shukr.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Nazir – “Hikoyalar to’plami”. Toshkent. Sharq – 2011
2. X.Safarov – “Hikoyalar to’plami”. Toshkent. Sharq – 2008
3. D.Quronov – “Adabiyot nazariyasi”. Toshkent: Navoiy universiteti – 2018.

